

18. Foydali maslahatlar.

Bo'lajak mutaxassisning materiallar qarshiligi fanini o'rganishi - uni kelgusi ilmiy-texnika taraqqiyoti jarayonida uchraydigan mexanik muammolarni mustaqil ravishda hal qilishi uchun asosiy-fundamental baza yaratadi. Shu bilan birga materiallar qarshiligini o'rganish, bo'lajak mutaxassisning dunyoqarashini va fikrlash qobiliyatini o'stirishga yordam beradi. Materiallar qarshiligini o'rganish jarayonida talaba mexanikaning asosiy, tushunchalarini va qonunlarini, hamda shu qonunlardan kelib chiqadigan xulosalarni mashina va inshoot qismlarining mustahkamligini, bikrligini va ustivorligini baholashda qo'llashi lozim. Talaba olgan bilimini materiallar qarshiligining aniq masalalarini yechishda, shuningdek materiallar qarshiligi asosida o'rganiladigan maxsus fanlarni muqammal o'zlashtirishda to'la tadbiiq eta olishi zarur.

Materiallar qarshiligi fani – Oliy matematika va fizika fanlaridan olingan bilimlarga tayangan holda - mashina va inshoot qismlarining mustahkamligini, bikrligini va ustivorligini matematik modelini qurib, bu sistemada sodir bo'layotgan statik dinamik jarayonlarni ilmiy nuqtai nazaridan taxlil qiladi. Shu sababli talabalardan matematika va fizika fanlarini to'la o'zlashtirishlari talab qilinadi.

Talabalar fanni o'zlashtirishi uchun oliy matematika va fizika fanlaridan olgan bilimlarini hamda materiallar qarshiligining barcha boblarini to'liq o'zlashtirishlari lozim.

